

## TELESPEKTAKLNING JANR VA FUNKSIONAL JIHATDAN O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Perxan Qudaybergenovna ALLAMBERGENOVA**

Doktorant

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## СПЕЦИФИКА ТЕЛЕСПЕКТАКЛЯ В ЖАНРОВОМ И ФУНКЦИОНАЛЬНОМ АСПЕКТЕ

**Перхан Кудайбергеновна АЛЛАМБЕРГЕНОВА**

Докторант

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана  
Ташкент, Узбекистан

## THE SPECIFICITY OF THE TV SHOW IN GENRE AND FUNCTIONAL ASPECT

**Perkhan Kudaybergenovna ALLAMBERGENOVA**

Doctoral student

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan

UDC (UO'K, УДК): 7.097

### For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Allambergenova P. Q. Telespektaklning janr va funksional jihatdan o'ziga xos xususiyatlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — B. 110-121.

<https://doi.org/10.36078/1672047003>

**Received:** September 20, 2022

**Accepted:** October 17, 2022

**Published:** October 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

**Annotatsiya.** Manbalar shuni ko'rsatadiki, televideniye dastlabki paydo bo'lgan paytda texnik imkoniyatlar hozirgidek takomillashmagan edi. Shuning uchun ham o'sha davr ijodkorlari mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, asosan, informatsion dasturlarga urg'u berishgan. Dam olish dasturlari sifatida telekonsert, hujjatli filmlar, badiiy filmlar namoyish etilgan. Keyinchalik telespektakl ekran yuzini ko'ra boshladi. Mazkur maqolada telespektakl janrining televideniya paydo bo'lish omillari ta'kidlab o'tildi. Telespektakl va teleinseniroyka janrining farqli jihatlari, telespektaklning o'ziga xos ba'zi xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, telespektakl janrining rus, o'zbek va qoraqalpoq jurnalistikasida ilmiy tadqiq etilishi haqida ma'lumot berildi. O'zbekiston televideniyesida sahnalashtirilgan asarlarning yuzaga kelishi, shu bilan birga aynan tadqiqot obyekti bo'lgan Qoraqalpog'iston televideniyesida telespektakllarning namoyish etilish tarixi qisqacha talqin qilindi. Televizion sahna asarini tayyorlashdagi texnik imkoniyatlar haqida ma'lumot berildi. Madaniy qadriyatlarini targ'ib etishda ayrim vazifalar keltirildi. Telespektaklga qo'yilgan asosiy talablar va teatr spektaklidagi farqli jihatlari hamda funksiyalari sanab o'tildi. Bevosita ilmiy-amaliy tahlillar natijasida maqola muallifi tomonidan telespektakllarning klassifikatsiyasi tavsiya etildi. Unda telespektaklning uzatilish shakli, asar mavzusi inobatga olindi.

**Kalit so'zlar:** janr; telespektakl; rejissyor; drama; televideniye; obraz; operator.

**Аннотация.** Когда впервые появилось телевидение, технические средства были менее развиты, чем сегодня. Соответственно создатели эффективно использовали имеющиеся возможности и в основном сосредоточились на информационных программах. В качестве развлекательных программ демонстрировались телевизионные концерты, документальные и художественные

фильмы. Позже на экране стали появляться телевизионные пьесы. В статье рассматриваются факторы возникновения жанра телеспектакля. Были исследованы различные аспекты жанров и особенности телеспектакля в русской, узбекской и каракалпакской журналистике. Были рассмотрены вопросы создания театральных произведений на телевидении в Узбекистане, а также история представления телевизионных спектаклей в Каракалпакстане. Дается информация о технических средствах подготовки телевизионной драмы. Были выдвинуты предложения по популяризации культурных ценностей. Даны основные требования к телеспектаклю, его различным аспектам и функциям. В результате научного и практического анализа автор статьи дает классификацию телеспектаклей.

**Ключевые слова:** жанр; телеспектакль; режиссер; драма; телевидение; образ; оператор.

**Abstract.** When television first appeared, the technical facilities were less advanced than today. Accordingly, creators effectively used the available opportunities and mainly focused on information programs. Television concerts, documentaries, and feature films were demonstrated as entertainment programs. Later, TV plays began to appear on the screen. The following article deals with the factors of the emergence of the TV showgenre. Various aspects of the genres and the features of TV play in Russian, Uzbek, and Karakalpak journalism were studied. The issues of creating theatrical works on television in Uzbekistan, as well as the history of presenting TV performances in Karakalpakstan, were studied. Information is given on the technical facilities of preparing a television drama. The proposals to popularize cultural values were advanced. The basic requirements for a TV show, its various aspects, and its functions in a theatrical performance are given. As a result of direct scientific and practical analysis, the article's author recommends classifying TV programs.

**Keywords:** genre; teleplay; director; drama; television; image; operator.

**Kirish.** Jurnalistlar qaysi axborot vositasida ishlashidan qat'i nazar har doim izlanishda, intilishda bo'lgan. Bunda texnik va ijodiy xodimlar hamkorligi nihoyatda muhim. Jumladan, televideniya ham ijodkorlar rang-baranglikni ta'minlash maqsadida badiiy asarlarni teleekrana olib kira boshladi. Shunday ijod namunalarining biri — telespektakl.

Telespektakl o'tgan asrning 60-yillarida televideniya yungicha ruhiyat, yangicha yondashuv bilan zamonaviy janr sifatida kirib keldi. Buni quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, Rossiyaning Markaziy televideniya-sida 1968-yil "Adabiy teatr" rubrikasida "Mixail Kolsov" spektakli namoyish etilgan bo'lsa, Omsk studiyasi aktyorlar yordamida ishchilar hayotini ochib bergan (11, 170).

Shuning uchun ham Rossiya jurnalistikasi nazariyasida 70–80-yillarda asosiy e'tibor telespektakl janriga qaratilib, ham nazariy, ham amaliy tadqiq etilgan. Masalan, "Проблемы телевидения" (12, 135) kitobida televideniyaning teatr yoki kino san'ati bilan yaqinligi haqida, "Музы XX века: художественные проблемы средств

массовой коммуникации” to‘plamida E. Korchaginning “Televizion spektakl: asar texnologiyasi va badiiy evolyutsiyasi” maqolasida “Televizion ishlab chiqarish texnologiyasining teleteatrning badiiy va ekspressiv xususiyatlari bilan bog‘liqligi muammosi” (10, 146)ni, E. S. Sabashnikovaning “Телевидение: вчера, сегодня, завтра” (15, 62) asarida teleekran va sahna, teleteatrdak aktyor, telespektaklda obraz, ekran rampasi kabi masalalarni, “Телевидение: вчера, сегодня, завтра” to‘plamida A. Vartanovning “Телевидение и искусствоведческая наука”, R. Kopilovning “Параллели (Телевидение и художественное мышление “технической эры”), E. Sabashnikovaning “Структура телеспектакля” (13,256) kabi ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin. Ayrim manbalarda esa televizion spektaklni ikki guruhga bo‘lib o‘rganishgan, birinchi guruh: “dramatik teatr, adabiy teatr, estrada teatri, qo‘g‘irchoq teatri” (3,159-198), ikkinchi guruh: musiqiy teatr va dramatik teatr (6,159-198). Eng qizig‘i, televizion opera, operetta, musiqiy komediya, musiqiy obozrenie (revyu), balet, musiqiy-biografik spektakl, musiqiy novella alohida janr sifatida tilga olinadi.

**Asosiy qism.** O‘zbekiston televideniyesi orqali 1956-yildan to shu kunga qadar bevosita tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Qoraqalpog‘iston televideniyesida ham 1964-yildan shu kungacha namoyish etilgan telespektakllar yildan yilga takomillashib, shakllanib bordi. Hatto ma‘lum darajada ilmiy tadqiq etildi. Masalan, 1956–1970-yillari O‘zbekiston televideniyesi orqali namoyish etilgan telespektakllar tadqiq etilganini ko‘rishimiz mumkin” (21, 4). Xuddi shunday holatni 1964–1980-yillar Qoraqalpog‘iston televideniyesiga nisbatan ham aytish mumkin.

Masalan, O‘zbekiston televideniyesidagi telespektakllar N. Qurbonboeva “O‘zbekistonning televizion teatri (adabiy-dramatik asarning televizion ekranga moslashuv masalalari)” (6), K. Sagdullaev “Teatr va ommaviy axborot vositalari kommunikativ tizim sifatida” (14) va qisman T. Ahmedov “O‘zbekiston televideniyesining rivojlanish jarayoni va uning aholi ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni (1991–2016)” (2), F. Fayzieva “O‘zbekiston badiiy televideniyesining shakllanishi (1956–2000)” (22) mavzularidagi fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalarida o‘rganilgan.

Ammo Qoraqalpog‘iston televideniyesi o‘z faoliyatini boshlaganiga yarim asrdan oshgan bo‘lsa-da, telespektakl faoliyat boshlagan ilk yillardanoq namoyish etila boshlaganiga (shu kungacha efirga uzatiladi) qaramasdan, ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham tadqiq etilmagan. Shu ma‘noda mazkur ilmiy maqola ahamiyatli deb hisoblaymiz.

Shunday bo‘lsa-da, tadqiqotimiz davomida Qoraqalpog‘iston televideniyesi zamon bilan hamqadam bo‘lib, o‘sha davr tendensiyalari bilan shakllanganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, O‘zbekiston televideniyesi tarixiga nazar tashlasak, televideniya telespektakllarning paydo bo‘lishiga bir necha omillar sabab bo‘lgan.

Birinchidan, O‘zbekistonda televideniyesi o‘z faoliyatini boshlagan davrda turdosh soha vakillari bilan hamkorlik qildi. Buni

quyidagi fikrlar ham tasdiqlaydi. Televideniye operator sifatida Malik Qayumov boshchiligidagi xronikal hujjatli filmlar studiyasi operatorlari, rejissyor sifatida teatr rejissyorlari va muharrirlar sifatida radio ijodkorlari ish yuritdi.

Ikkinchidan, tomoshabin didi va xohishi iste'molchi sifatida, albatta, birinchi o'rinda turadi. Vaqt o'tgan sayin tomoshabinlarning talabi ortib bordi. Shu sababdan ham televideniye asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, yangi janrlar kirib kela boshladi. Xususan, badiiy asarlarni insseniroyka va telespektakllar shaklida talqin etishga kirishildi. O'zbekiston televideniyesida namoyish etilgan ilk telespektaklni Mahkam Mahamedov sahnalashtirgan yozuvchi Parda Tursunning "O'qituvchi" romani edi (18, 20). Bu sahnalashtirilgan asarlar texnik sabablarga ko'ra jonli efirga uzatilgan.

Uchinchidan, o'sha davrda kadrlar taqchilligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan, hali uning sir-asrorlarini tushunib yetmagan mutaxassislar televideniye faoliyat boshlagan. Chunki o'sha yillari alohida o'quv dargohi yo'q bo'lgani bois faqat amaliyot va o'z tajribasi orqali bu "asr mo'jizasi"da ish boshladi (20, 80). Xuddi shu fikrimizni tadqiqotchilar ham tasdiqlaydi. "Teatr san'atining tajribasi televizion teatrning barcha shakllarida o'z aksini topdi. Bunga hal qiluvchi uch omil ko'mak berdi: birinchisi, milliy dramaturgiyaning rivojlana boshlaganligi va uning an'analari yuzaga kelganligi, ikkinchisi, rejissyorlarning barchasi teatr rejissurasiga mansub bo'lib, ularning ko'pchiligi teatrlardan tajriba olib kelgan yoki teatr oliygohining bitiruvchilari edi. Uchinchisi — ijrochilar teatrning yetakchi aktyorlari bo'lib, ularning nazariy bilimi va tajribasi teatr amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan. Muharrirlar ham o'z bilimlarini televizion ifoda imkoniyatlaridan ko'ra anchagina yaqinroq tuyulgan teatr tomon qaratganlar" (17, 64).

Demak, yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, kino va teatr ijodkorlari televideniye faoliyat yuritishi bilan ekranda sahnalashtirilgan asarlar paydo bo'ldi.

O'zbek teledramaturgiyasi bugungi kunda ozmi-ko'pmi bu janr yuzasidan bir qancha asarlarga egadir.

Xo'sh, bizni tadqiqot obyektimiz bo'lgan Qoraqalpog'iston televideniyesida telespektakllar qanday namoyon bo'lmoqda?

Endi bevosita amaliyotga murojaat etamiz. Qoraqalpog'iston televideniyesida ham yuqoridagi kabi tendensiya kuzatilgan. Ya'ni birinchi rejissyor, O'zbekiston SSR va Qoraqalpog'iston ASSR xalq artisti Quo'atbay Abdireimov teatr rejissyori edi.

Qoraqalpog'iston televideniyesida birinchi telespektakl 1965-yilning sentyabr oyida o'sha paytdagi Nukus televideniyesining katta rejissyori, Stanislavskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat teatrining (hozirgi Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik teatri) taniqli rejissyori va aktyori Q.Abdireimov tomonidan sahnalashtirildi. U "Qaydasiz, mening Lukuliyim" degan telespektakl edi. Afrika xalqining ayanchli hayotidan yozilgan bu asar Q. Abdireimov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan va shu asosda ssenariy yozib sahnalashtirilgan. Eng asosiysi, telespektakl Qoraqalpog'iston

televideniyesi ijodiy jamoasining hali shakllanish davrida, oldindan yozib olinmasdan (u davrda yozib olish imkoniyati yo‘q edi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilgan. Qizig‘i, mazkur telespektakl efirga namoyish etilganidan so‘ng bir guruh tomoshabin telestudiyaga kelib, “hozirgi qiziq spektaklni rostdan ham sizlar namoyish etdilaringmi? O‘sha aktyorlar bilan ko‘rishsak bo‘ladimi?” degan savollar bilan murojaat etishgan (8, 78–79).

Ikkinchidan, Qoraqalpog‘iston televideniyesi faoliyat boshlaganiga bir yil to‘lmasidan tomoshabinlarga yangilik sifatida telespektakllar namoyish qilina boshlagan.

Uchinchidan, Qoraqalpog‘iston televideniyesida ham rejissyor sifatida ish boshlagan aksariyat yoshlar teatr rejissyorligi mutaxassislari bo‘lgan.

Uzatilgan telespektakllar esa turli mavzularda bo‘lgan. Fashizm ustidan erishilgan G‘alabaning 25 yilligiga bag‘ishlangan telespektakl ham muvaffaqiyatli namoyish etilgan. Shu bilan birga, o‘zbek va rus yozuvchilarining asarlari ham sahnalashtirilgan. Masalan, 1968–1974-yillari o‘zbek yozuvchisi A. Muxtorning “Qoraqalpoq qissasi”, O‘. Hoshimovning “To‘ylar muborak”, Y. Leontivichning “Ko‘rsichqon qing‘irligi” asarlari ham tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otdi (8, 80).

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, qardosh respublikalarda ham qoraqalpoq yozuvchilarining asarlari asosida sahnalashtirilgan televizion spektakllar soni yildan-yilga ortib bordi. “...T. Qayipbergenovning ko‘p tomli asari asosida “Maman biy ertagi”, M. Baydjievning “Duel” va “Sud majlisga ketadi” asarlari asosida ikki va uch qisimli telespektakllar sahnalashtirilgan” (7, 74–75).

Bundan tashqari, mahalliy ijodkorlardan G‘. Seytnazarovning “Dovullar orasidan” (“Даўыллаp арасынан”), Q. Dosanovning “Singan novda” (“Сынған шақа”), T. Qalimbetov sahnalashtirgan “Shomdagi soyalar” (“Геўгимдеги көлеңкелер”), 1989-yili namoyish etilgan “Onajonlarim” (“Анажанларым”), T. Qayipbergenovning “Mamanbiy afsonasi” (“Маманбий әпсанасы”) M. Nizanovning “Yo‘nalish” (“Бағдар”) asarlari asosida telespektakllar tayyorlanib efirga uzatilgan (8, 80).

Albatta, bu asarlar kichik, deyarli sharoitlari yo‘q studiyada tomoshabinlar e‘tiboriga havola qilingan. Qoraqalpog‘iston televideniyesi ish boshlagan paytda studiya imkoniyatini inobatga olib, kam personajli spektakllar namoyish etilgan. “Dastlabki paytlari kichik studiyada ko‘rsatuvlar tayyorlashda biroz qiyinchiliklar bo‘ldi. Shunga qaramasdan, har kuni soatlab “jonli” ko‘rsatuvlar efirga uzatilib, konsert dasturlari, telepostanovkalar tomoshabinlarning e‘tiboriga havola qilindi” (9, 47). Quyidagi ma‘lumot ham fikrimizni isbotlaydi. Ya‘ni “taxminan 30 kvadrat metrlik xonada ham axborot dasturi, ham 2–3 kishi ishtirok etadigan ko‘rsatuvlar, ham kam personajli spektakllar to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilgan” (6, 68). Shuning uchun bu kichik studiyada drama asarini sahnalashtirish rejissyorga qiyinchilik tug‘dirish bilan birga mas‘uliyat yuklaydi.

Zamonaviy texnikalarning keltirilishi doimo teledasturlarga o'ziga xos yangicha yondashuvga imkon yaratadi. Sahna asarlarini tayyorlash imkoniyati ham 1972-yili "Kadr-1" videomagnitafoni olingandan keyin biroz kengaydi. Qayta yozish, saqlash, montaj qilish imkoniyati paydo bo'ldi. 1975–1985-yillari yangi adabiy asarlarni televideniye ga moslashtirib yozib olishga e'tibor qaratilib, telepostanovkalar muntazam namoyish etildi (8,78–79).

Keyinchalik texnik imkoniyatlar yaratilgandan so'ng yozib olingan asarlar saqlab qolingan. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston televideniyesida 20 dan ortiq telespektakllar arxiv fondida saqlanmoqda.

Shunday qilib, teleteatr spektakli teatrning ayrim qonunlarini saqlagan holda ekran yuzini ko'ra boshladi.

Mustaqillikdan keyin, 2000-yillargacha telespektakllarning ikki xil ko'rinishi namoyish etilgan. Birinchisi, teatrdan yozib olingan, ikkinchisi bevosita televideniye studiyasida tasvirga olingan. "Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan Abdulla Oripovning "Sohibqiron" spektakli televideniye orqali namoyish etildi (20, 35). Qoraqalpog'istonda taniqli dramaturglarning asarlari sahnalashtirilib, teleradiokompaniya arxiv fondiga yozib olina boshlangan.

Ammo 2000–2010-yillar Qoraqalpog'iston televideniyesida telespektakllarning namoyish etilishi biroz susaygan. Buni kuchli dramatik asarlarning yo'qligi bilan izohlashadi. Bu holat o'sha davrda o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida ham kuzatildi. Buni adabiyotning ma'lum ma'noda inqirozi deb ham aytish mumkin. 2010-yillardan keyin qisqa metrajli inssenirovkalar qo'yila boshlandi. Masalan, "Donolar bisotidan" ("Рэўийлер эңгимеси") bunga misol bo'la oladi.

Har qanday roman, qissa, pyesa yoki hikoya "televizion asar" talablariga javob beravermaydi. Televideniye studiyasi bunga imkon bermaydi. Aytaylik "Urush va tinchlik"dek yirik, mumtoz asarni qanday qilib "kichik ekran"da talqin qilish mumkin? Masalan, yuzlab bir-biriga o'xshamagan qahramonlar, yuzlab askarlar-u, zobitlar, jangmaydonlari, liboslar, grimlar, jangovar qurol-aslahalar, piyodalar, otliqlar, portlash-u-yong'inlar... bu jarayonlarni ekranda namoyish etish imkoni yo'q.

Televideniye auditoriyaga, asosan, kundalik va ma'lum yo'nalishdagi ko'rsatuvlari, ko'ngilochar dasturlari, spektakllar, konsertlar, kinofilmlar va hokazolar bilan ta'sir qiladi. Shu orqali tomoshabinga vatanga muhabbat va sadoqat ruhi yetkaziladi.

Televideniye — auditoriyasi cheklanmagan, tengsiz tarbiyaviy kuchga ega, juda katta san'at. Teatr spektaklini sanoqli odamlar tomosha qilishi mumkin. Televideniye ni esa nafaqat televizor orqali balki, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy saytlarida ham, shuningdek, takror ko'rish imkoniyatlarini ham hisobga olsak, chegara bilmas darajada tomosha qilish mumkin. Aslida televideniye ning asosiy xususiyatlaridan biri ham mana shudir.

Teledramada ishtirok etuvchi personajlar aytarli ko'p bo'lmaydi. Bu televizion dramaturgiyaning eng muhim shartlaridan biridir. Shu bilan birga, "personajlarning kam ishtirok etishi, asarning

dramatik va chuqur his-tuyg'ularga boyligi telespektaklning ta'sirchanligini orttiradi" (7, 20).

"Televideniye rejissyori telekamera yordamida teatr harakatini sahnadan haqiqiy tabiatga olib chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ko'pchilik uchun televideniye o'ziga xos imkoniyatlari aynan shunday kombinatsiyada — teatr va kinoning uyg'unlashib, qo'shilish ketgandek tuyuladi" (13, 62). Shuning uchun ham mana shu jihatlari bilan telespektakl teatr spektaklidan farqlanib turadi.

Teatr hamda kinodan boshqa vaqt va makonda badiiy harakatni shakllantirishning maxsus usullari teleteatrda "sahna" tushunchasining yanada kengroq, erkinroq talqin qilinishiga, ko'pincha odatiy, qat'iy belgilangan chegaralarni yo'qotishiga olib keladi. Aslida, televideniye teatri, xuddi kinematograf kabi tafsilotlarni, harakat joyi va vaqtning o'ziga xos belgilarini yetkazishda ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Ammo bu yerda yana bir narsa borki, ba'zida sahnaviy ko'rinishni ifoda etish uchun kichik bir ishora, shartlilik va sezilar-sezilmas bir belgi ham yetarli (13, 121).

Telespektaklning muvaffaqiyati hayotni, insonlar turmush tarzini, jamiyatdagi ba'zi muammolarni san'atkorona taqdim qilinishidadir. Albatta, bunda hujjatlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatlilik — drama asosini ta'minlovchi hujjatning, faktning to'g'riligidir. Haqiqiy kundaliklar, xotiralar, xatlar, sud jarayonlari bayonnomalari ssenariylar asosini tashkil etishi bejiz emas (16, 30).

An'anaviy teatrda nasriy asarlar, jumladan, epik romanlar asosidagi sahna kompozitsiyalari ham namoyish etiladi, ammo telespektaklning o'ziga xosligi nimalardan iborat?

Albatta, televideniye "kichik ekran". "Kichik ekran"ning ham o'ziga xos talablari borligini esdan chiqarmaslik lozim. Tomoshabin aktyorlarni yirik planda ko'rgisi keladi. Televideniye bilan teatr o'rtasidagi tafovut ham aynan shunda. Yana televideniye ifoda usullari ham boshqacha. Unda qahramonlarning xatti-harakatlari, yuz-ko'z ifodalari, intim holatlariga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Hatto teatrdagi grim bilan televideniye grimi ham boshqa-boshqa narsalar. Televideniye tabiiylik va haqqoniylikni talab qiladi. "Televideniye bu — teatr va kino oralig'idagi omuxta, ularning imkoniyatlarini o'ziga qamrab olgan sintetik san'at" (18, 27; 29; 31; 39).

Olimlar telespektaklning eng muhim belgilari sifatida quyidagilarni: 1) hujjatli materialning dramatik talqin etilishini; 2) tabiiy sahna ko'rinishlarisiz, ko'pincha oddiy liboslarda sahnalashtirish mumkinligini; 3) tomoshabinga aktyorlik o'yini orqali "to'rtinchi devorsiz" murojaat qilish, haqiqiy odam — aktyor voqea ichida o'zi obrazga kirib yetkazib berishini ta'kidlaydi.

Hayotiy yoki badiiy to'qimalar orqali yaratilgan telespektakl tomoshabinning ijodiy tasavvur va ishtirokiga ta'sir qilish uchun yaratiladi. Albatta, obrazni yaratishda "aktyorlar hatto, bir muddat "xarakterdan chiqib ketishlari" va ko'rsatilgan narsalarni muhokama qilishga kirishishlari mumkin. Ba'zi mualliflar spektaklga boshlovchi figurasini ham kiritadilar (11, 170).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Televizion teatr" o'zining janr xususiyatlari va kompozitsion yaxlitligi bilan teatr va kinoning sintezi

ekanligini yana bir tasdiqlagan holda, ma'lum o'rinlarda teatr spektakliga yaqin turishini amalda isbotlaydi (1, 53). Demak aytish mumkinki, konvergensiya jarayoni yuzaga keladi.

Telespektakl rejissyorning adabiy materialga: pyesa yoki teleinsseniroykaga jon kiritishi natijasidan vujudga keladi. Telespektakl janri ana shu adabiy materiallarning janr xususiyatlariga to'la javob berishi kerak. Aks holda, telespektakllardagi tipologik xususiyatlar, ularning yangi alomatlari nazardan chetda qoladi. Bunda biz alohida televideniye uchun yozilgan original yoki teatr uchun yozilgan pyesani ham, roman yoki qissalarning teleinsseniroykasini ham bir rubrika ostida berilishini, ya'ni "Televizion teatr" deb nomlanishini nazarda tutyapmiz. Bu hol telespektakl bilan teleinsseniroyka o'rtasida jiddiy farqlar va umumiy mushtarak taraflar bor ekanligini inkor qilmaydi. Bizningcha, imkoniyatlari natijasida vujudga kelgan adabiyotimizdagi janr — telepyesa va televariantlashtirilgan pyesalargina "televizion teatr" rubrikasi uchun adabiy material bo'la oladi. Chunki televizorda teatr namoyish etilar ekan, u dramaturgiya qonuniyatlariga bo'ysunishi kerak. Shu tufayli u insseniroykadan keskin farq qiladi. Teleinsseniroykalar esa roman yoki qissa asosida yaratiladi va dramaturgiya qonun-qoidalari, televideniye imkoniyatlari doirasida qayta talqin qilinadi. Telekranning kichik hajmliligi uning o'ziga xos xususiyatidir.

Televideniye san'atkordan obyektini iloji boricha yiriklashtirishni, fikrlayotgan insonni to'laligicha ko'rsatishni, uning ichki dunyosini haqqoniy ifodalashni, qolaversa, ekran qarshisidagi suhbatdoshining savolga javob axtarishni talab qiladi. Shu tufayli uning o'ziga xos ma'no ifoda etuvchi vositalari insonning ichki olamini yirik planda ko'rsatishga moslashtirilgan telepyesa janrining vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, televideniye madaniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi, inson ma'naviyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos ko'p funksiyali tizim bo'lib, u quyidagi funksiyalarni (vazifa) bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi:

- informativ, ya'ni axborot ulashuvchi (efir orqali ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega axborotni ulashadi);
- madaniy-ma'rifiy funksiya (madaniy sohalar bilan tomoshabinni tanishtirish, san'at va madaniyat yangiliklarini targ'ib etish, yangi milliy qadriyatlar asosida asarlar yaratish);
- rekreativ funksiya (tomoshabinlarning madaniy hordiq chiqarishiga xizmat qilish, TV ko'rsatuvlar orqali insonning ma'naviy saviyasini yuksaltirish);
- integrativ funksiya (jamiyatning barcha qatlamlarini — ijtimoiy, milliy, kasbiy, diniy va boshqa — jipislashtirishga yo'naltirilgan);
- reproduktiv va yaratuvchi (produktiv) xususiyatlarini oydinlashtirib, televideniye moddiy-ijodiy, retsepsion-estetik, ma'naviy-madaniy faoliyatini aniqlash (21, 4).



Yuqoridagi funksiya biz tahlil qilayotgan telespektakllarda bevosita namoyon bo'lmoqda. Nazdimizda buni isbotlashga hojat yo'q.

E. Bagirov televideniye — televideniye va taraqqiyot, televideniye va siyosat, televideniye va san'at, televideniye va ma'naviyat kabi bir necha aspektda ko'rib chiqar ekan, u televideniye ta'sir doirasini shunday izohlaydi. "Insonning besh tuyg'usi — inson ongining besh vakilidir. Ulardan ko'z — oshkora tafakkurning bir bo'lagidir" (3, 210), — deydi. Demak telespektakl ham tomoshabinda mana shu besh tuyg'u bilan ta'sir etishi orqali samaradorligi ortadi. Televideniye kinodan farqli jihati u voqelikni tezkorlik bilan to'g'ridan-to'g'ri (translyatsiya) uzatish jarayonida tomoshabinni voqeaning guvohi va ishtirokchisiga aylantirishi mumkin. Voqealikka obyektiv va subyektiv yondoshuv teletomoshabin e'tiborini qozonish, montajdagi tasvirning inson kayfiyatiga ta'siri masalalari televizion ijodda g'oyat muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ijodiy guruhning (rejissyor, operator, rassom va h.k.) estetik, falsafiy, intellektual salohiyati va texnik imkoniyati uyg'unlashgan holdagina ko'rsatuv san'at darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Televideniye insonlar orasida mukammal muloqot — kommunikatsiya vositasi, o'ziga xos sintetik san'at turidir. Lekin uning ahamiyatli tomoni shundaki, u insonni so'z, fikr-mulohazalar, kuy-qo'shiq, san'at asarlari, voqealar jarayoni bilan tanishtiruvchi vositadir.

Tadqiqotchi F.Fayzieva o'z ilmiy ishida televideniye yirik ikki: informatsion (hujjatli) va badiiy televideniye bo'lib o'rgangan. Buni informatsion televideniyedagi turkum ko'rsatuvlarda voqelik ortiqcha bo'yoqsiz tomoshabinga yetkaziladi. Badiiy televideniye badiiy san'at va yuksak estetik talablarga javob bera oladigan, voqelikni nafis san'at vositalari, obrazlar orqali ifoda etuvchi, ijodkorlarning badiiy imkoniyati, aktyorning mahoratini tasvirovchi televizion asarlar va ko'rsatuvlar kiradi (21, 6–7) deya izohlaydi.

Darhaqiqat, badiiy publitsistik janrlar turkumiga oid ko'rsatuvlarda ham badiylik ustunlik qiladi, unda ramzlardan, yorqin xarakter, badiiy to'qimalardan keng foydalaniladi.

Teledramaturgiya ham mustaqil ijod turi bo'lib, teatr pyesasidan ham, kinossenariydan ham farq qilib, televideniye xususiyatlariga, talablariga javob berishi bilan farqlanadi. Garchi, televizion dramaning ssenariysidagi dialoglar teatr pyesasi dialoglariga yaqin bo'lsa-da, televideniye o'ziga xos element — ya'ni operatorning televizion ifoda vositalari orqali butun sahnani ko'rsatish imkoniyati bor. Qisqa va har xil sahnalar, siliq dialoglar, ortiqcha gapdan ko'ra ko'proq ma'lumot beruvchi ekspozitsiyalarning — mana shularning hammasi dramaturgiya asosi — ssenariyga sayqal beradi. Teledramaturg teatr dramaturgga nisbatan ancha imkoniyatlarga ega. Chunki voqealarni keng planda yoritib berish uchun texnik vositalarga ega. Lekin u televideniye ifoda vositalarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini bilmay turib ish boshlay olmaydi. Shuningdek, televizion til, teleijodkorlarning mahorati va uning badiiy

imkoniyatlarini hisobga olishi zarur. Adabiy asar asl holdan televizion talqin qilinganida o'zgarishlarga uchraydi va mutlaqo yangi shaklga ega bo'lgan mustaqil asarga aylanadi. Bu asarning teleekran uchun mo'ljallangan talqini, yechimi hamda ijodkorlar nimaga urg'u berishiga bog'liq (20, 9).

Videokamera kashf etilishi televizion badiiy janrning rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Televideniye ga kirib kelgan dramatik va epik shakldagi barcha asarlar — teatr dramaturgiyasi usulida tayyorlanib, deyarli teatr spektakllarining teleekranga moslashtirilgan shakli bo'lib qoladi. "Teatr asarlari televideniye ekraniga ko'chirilganda yirik plan bilan montaj teatrdagi mezan sahnaning o'rnini bosadi, bunda tomoshabinni ko'rish, idrok etish shart-sharoitlari o'zgaradi. Shuni hisobga olgan holda, aktyorning ijrochilik shakllari o'zgaradi, bir shakldan ikkinchi shaklga o'tadi, voqealarning tabiiy holda, tabiiy muhitda tasvirga olinishi shartlilik va shartsizlik, hayotiylik bilan sahnaviylik o'rtasidagi nisbatni sifat jihatdan o'zgartirib yuboradi (6, 2).

Televizion drama juda murakkab badiiy organizmdir. Teledrama to'laqonli bo'lishi va takror tomoshabinlarga ko'rsatish uchun yorqin obrazlarga, voqealarning mantiqiy rivojiga, izchil va dinamik intrigaga, qiziqarli ekspozitsiyaga va nihoyat, asoslangan qisqa dialoglarga ega bo'lishi talab etiladi. Bu elementlarning barchasini bir tizimga joylab, tugallangan ssenariy holatiga keltirish uchun rejissyor yuksak badiiy mahoratga ega bo'lishi kerak (21, 40).

Televizion dramalarning shakllari ko'p. Bulardan biri — teatr spektakllarining reproduktiv namoyishi. Bunday shaklda sahna asari o'zgartirilmay translyatsiya qilinadi. Ikkinchisiga esa bevosita televideniye uchun moslab yaratilgan telespektakllar kiradi (20, 8).

**Xulosa.** Chekka hududda joylashgan Qoraqalpog'iston televideniyesi garchand, Markaziy telekanaldan, O'zbekiston televideniyesidan keyin paydo bo'lgan bo'lsa-da, texnik imkoniyatlari yetarli bo'lmasa-da, zamon bilan hamnafas qadam tashlaganini kuzatish mumkin.

Hattoki, Qoraqalpog'iston televideniyesi ijodiy jamoasining shakllanib ulgurmasdan yirik ishga qo'l urilishi katta jasorat va mehnat. Chunki shu kabi ijodiy izlanishlari bilan tomoshabinlar qalbidan joy ola oldi.

Televideniye orqali namoyish etiladigan telespektakllar teatr qonuniyatlarini ma'lum darajada o'zida mujassam etib, teleefirda namoyon bo'lmoqda. Uzatilayotgan telespektakllar gedonistik, informativ, rekreativ, madaniy-ma'rifiy funksiyalarni bajarmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, telespektakllarning uzatilish shakliga ko'ra ikki xili ya'ni, to'g'ridan-to'g'ri va yozib olingan telespektakllar namoyish etilgan. Mavzuga ko'ra, asosan, tarixiy va ijtimoiy yo'nalishdagi mavzular yoritilgan (Mazkur tasnif muallif kuzatishlari natijasi). Televideniye da yozib olish imkoniyati yaratilgandan buyon telespektakllar to'g'ridan-to'g'ri namoyish etilmagan. Telespektakllar televideniye studiyasida emas, asosan, teatrdan sahnalashtirilgan spektakllar uzatilgan.

Keyinchalik komediya janridagi telespektakllar ham namoyish etildi. Masalan, “Тоғыз тоңқылдақ, бир шиңқилдек”, “Өмирбек хэм тазша” komediya janridagi telespektakllar shu kungacha Qoraqalpog‘iston televideniyesi orqali namoyish etiladi.

Televideniye madaniyat, ma’rifat tarqatishning buyuk quroli ekan, bundan samarali foydalanish lozim. Kuchli adabiy dramatik asarlarni yozish va sahnalashtirish muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asadullayev M. *Televideniye nazariv va amaliy asoslari*. — T.: Mumtoz so‘z, 2021. — 584 b.
2. Axmedova T. “O‘zbekiston televideniyesining rivojlanish jarayoni va uning aholi ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni (1991-2016)” mavzusidagi dissertatsiyasi. — Toshkent: «Toshkent kimyo-texnologiya instituti» bosmaxonasi, 2019. — 53 b.
3. Багиров Э. *Очерки теории телевидения*. — М.: Искусство, 1978. — 210 с.
4. Жанры телевидения / Багиров Э., Борецкий Р, Глуховская Л. и др. — М., 1967. — 252 с.
5. Карлыбаев А., Сейтназаров Г., Уснатдинов Ш., Алламбергенов К. *Внимание: говорит Нукус!* — Н.: Каракалпакстан, 1982. — 80 с.
6. Курбанбаева Н.Х. *Телевизионный театр Узбекистана. К проблеме адаптации литературно-драматических произведений на телевизионном экране/ спец.17.00.01. автореф.дисс.канд.искусствоведения*. — Т.: СИТИ, 1995. — 29 с.
7. *Изображение, говорящее на твоём языке*. — М.: Изд-е ГКРТ, 1965. — 20 с.
8. Мадреймов Т. *Телевидение жариялылык куралы*. — Н.: Каракалпакстан, 1989. — 108 б.
9. Мадреймов Қ. *Қалбим сүйген кәсип*. — Н.: Каракалпакстан, 2009. — 64 б.
10. *Музы XX века — Художественные проблемы средств массовой коммуникации*. — М.: Искусство, 1978. — 304 с.
11. *Телевизионный сценарий /Под редакцией Э.Г.Багирова.* — М.: Изд-во Моск.унив-та, 1975. — 176 с.
12. *Проблемы телевидения*. — М.: Искусство, 1976. — 136 с.
13. Сабашникова Е.С. *Третье рождение пути. Развития телевизионного театра*. — М.: Искусство, 1982. — 168 с.
14. Сагдуллаев К. *Театр ва оммавий ахборот воситалари коммуникатив тизим сифатида. Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати*. — Тошкент, 2018. — 45 б.
15. *Телевидение: вчера, сегодня, завтра. Выпуск 2*. — М.: Искусство, 1982. — 256 с.
16. Тетерин В.С. *Особенности режиссуры телефильма при многокамерном методе съёмки*. — М., 1971. — 146 с.
17. Ubaydullayev A. *Oynai jahon istiqbollari*. — T.: Fan, 1993. — 80 b.
18. Usmanov E. *Nayratlarga to‘la dunyo*. — T.: Minhoj, 2005. — 128 b.
19. O‘tayev O‘. *Zangari ekran zargari*. — T.: Sharq, 2010. — 96 b.
20. “O‘zbekiston matbuoti” *jurnali*. 1997. 4-son. — 35b.
21. Файзиева Ф. *Ўзбекистон Бадий телевидениесининг шаклланиши (1956-2000 йиллар): Автореф. дисс. ... канд. искусств. – Ташкент, 2009. — 45 б.*

#### References

1. Asadullayev M. *Televideniye nazariv va amaliy asoslari* (Theoretical and practical foundations of television), Tashkent: Mumtoz so‘z, 2021, 584 p.
2. Axmedova T. “O‘zbekiston televideniyesining rivojlanish jarayoni va uning aholi ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni (1991-2016)” mavzusidagi dissertatsiyasi (Thesis on the topic “the process of development of Uzbek television and its role in the socio-cultural life of the population (1991-2016)), Tashkent: Toshkent kimyo-texnologiya instituti bosmaxonasi, 2019, 53 p.

3. Bagirov E. *Ocherki teorii televideniya* (Essays on the theory of television), Moscow: Iskusstvo, 1978, 210 p.
4. Bagirov E., Boretskii R., Glukhovskaya L., Grigor'yants N., Katsev I. *Zhanry televideniya* (Genres of television), Moscow, 1967, 252 p.
5. Karlybaev A., Seitnazarov G., Usnatdinov Sh., Allamberganov K. *Vnimanie: govorit Nukus!* (Attention: this is Nukus speaking!), Nukus: Karakalpakstan, 1982, — 80 p.
6. Kurbanbaeva N.Kh. *Televizionnyi teatr Uzbekistana. K probleme adaptatsii literaturno-dramaticheskikh proizvedenii na televizionnom ekrane* (Television Theater of Uzbekistan. On the problem of adaptation of literary and dramatic works on the television screen: Extended abstract of candidate's thesis), Tashkent: SITI, 1995, 29 p.
7. *Izobrezhenie, govoryashchee na tvoem yazyke* (An image that speaks your language), Moscow: GKRT, 1965, 20 p.
8. Madreiimov T. *Televidenie zhariyalylyk quraly*, Nukus: Karakalpakstan, 1989, 108 p.
9. Madreimov K. *Qalbm syigen kasip*, Nukus: Karakalpakstan, 2009, 64 p.
10. *Muzy XX veka — Khudozhestvennye problemy sredstv massovoi kommunikatsii* (Muses of the XX century — Artistic problems of mass communication media), Moscow: Iskusstvo, 1978, 304 p.
11. Pod redaktsiei E.G.Bagirova. *Televizionnyi stsenarii* (Edited by E.G.Bagirov. TV script), Moscow: Izd-vo Mosk.univ-ta, 1975, 176 p.
12. *Problemy televideniya* (Problems of television), Moscow: Iskusstvo, 1976, 136 p.
13. Sabashnikova E.S. *Tret'e rozhdenie puti. Razvitiya televizionnogo teatra* (The third birth of the path. Development of television theater), Moscow: Iskusstvo, 1982, 168 p.
14. Sagdullaev K. *Teatr va ommavii akhborot vositalari kommunikativ tizim sifatida* (Theater and mass media as a communicative system), extended abstract of PhD thesis, Tashkent, 2018, 45 p.
15. *Televidenie: vchera, segodnya, zavtra. Vypusk 2* (Television: yesterday, today, tomorrow. Issue 2), Moscow: Iskusstvo, 1982, 256 p.
16. Teterin V.S. *Osobennosti rezhissury telefil'ma pri mnogokamernom metode s"emki* (Features of directing a TV movie with a multi-camera method of shooting), Moscow, 1971, 146 p.
17. Ubaydullayev A. *Oynai jahon istiqbollari* (TV perspectives), Tashkent: Fan, 1993, 80 p.
18. Usmanov E. *Hayratlarga to'la dunyo* (A world full of admiration), Tashkent: Minhoj, 2005, 128 p.
19. O'tayev O'. *Zangari ekran zangari* (Blue screen jewel), Tashkent: Sharq, 2010, 96 p.
20. *O'zbekiston matbuoti*, 1997, No. 4, 35p.
21. Fayziyeva F. *"O'zbekiston badiiy televideniyesining shakllanishi" (1956-2000 yillar)* ("Formation of art television of Uzbekistan" (1956-2000)), extended abstract of candidate's thesis, 45 p.